

**MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALAR  
SALOMATLIK HOLATNI GIGIYENIK TAHLILI**

*Soatov Mirmuhsin Maxmatmurot o‘g‘li*  
*[mirmuhsinsoatov@gmail.com](mailto:mirmuhsinsoatov@gmail.com)*

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

*Gigiyena kafedrasи stajyor assistenti*

*Izzatullayeva Farangiz Jaxongirovna*

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

*Tibbiy profilaktika yo‘nalishi talabasi*

### ANNOTATSIYA

Salomatlik holati - JSSTning ma’lumotlariga asosan bolaning yoshi, jinsiga mos ravishda aqliy, jismoniy, ruhiy va estetik jihatdan rivojlanishinig erishilgan gormonik holatidir.

Bolalar va o‘smirlar jamoasining salomatlik holatini o‘rganish va oldini olish muammosi bugungi kunda davlat miqyosidagi asosiy muommolardan biri hisoblanadi, shuning uchun jamoaning salomatlik holatini himoyalash va mustaxkamlash mamlakatimizning sog‘liqni saqlash tashkilotlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** Salomatlik holati, gepatit A, ARI, bolalar va o‘smirlar, maktabgacha ta’lim

### KIRISH

Bugungi kunda o‘suvchi organizmni salomatlik holatining funksional jihatdan o‘zgarishi yil sayin ortib bormoqda, buning asosiy sabablaridan biri, kun tartibini to‘g‘ri tashkillashtirilmasligi, yetarli darajada jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanmaslik va tartibsiz ovqatlanish sabab bo‘lishi aniqlangan.

So‘nggi yillarda bolalar va o‘smirlar salomatlik holatini himoyalash, kasallikkarni kamaytirish va jismoniy rivojlanishini yaxshilashga qaratilagan chora-tadbirlar keng tarzda amalga oshirilishiga qaramasdan bugungi kunda mamlaktimiz istiqomat qilib ta’lim-tarbiya olib kelayotgan bolalar va o‘smirlar orasida ayrim kasallikkarning darajasi yuqoriligidcha qolmoqda.

### MATERIAL VA USULLAR

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning kasallanish ma’lumotlari shaxsiy kartalari 026 shakl va murojaatlar soni natijalari bo‘yicha taxlil qilindi. Kasallanish ma’lumotlari перечен классов и рубрик «Международной статистической классификатии болезней и проблем, связанных со здоровьем» (MKB-10) bo‘yicha

o‘rganildi va tahlil qilindi. Ularning salomatlik holati va kasallanish darajasi yashash joyidagi oilaviy shifoxonalarda o‘rganildi.

## **NATIJALAR VA MUNOZARALAR**

Bozor iqtisodiyoti o‘tish munosabati, kichik kichik sektorlarlarning ochilishiga qaramasdan maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar orasida kun tartibining izdan chiqishi oqibatida, ovqatlanish madaniyatining buzilishi, ovqat ratsioni tarkibida turli xil vitaminlarning ayniqsa A va B guruh vitaminlarining yetishmasligi oqibatida kelib chiqadigan kasalliklar soni kun sayin ortib bormoqda. Bu esa maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning o‘sish va rivojlanish qonuniyatlarining izdan chiqishi, ta’limtarbiya tizimda o‘ziga xos o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. So‘nggi yillarda H<sub>1</sub>N<sub>1</sub> grippi, OITS va uning oqibati asosida tug‘iladigan bolalar soni kun sayin ortib bormoqda.

Tekshirish vaqtida maktabgacha ta’lim yoshidagi tarbiyalanayotgan bolalar orasida murojaatlar sonini keskin ko‘payishining sabablaridan biri ushbu yoshidagi bolalar kun tartibi va uning asosiy komponentlarining izdan chiqqanligi yoki maktabgacha ta’lim muassasasi va uy sharoitida rioya qilmaslik holatlari, bolalarning emlash darajasi va sifatining pastligi, noto‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy tayyorgarlik darajasining pasayishi oqibatida immun tizimi faoliyatining pasayib ketganligi sabab bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim muassasasiga tibbiy xizmat Toshkent shaxar Uchtepa tumanidagi ixtisoslashtirilgan oilaviy shifoxona tomonidan xizmat ko‘rsatiladi.

Ularining yillik ish rejasi mayjud va tasdiqlangan.

Hisob kitob tartibi quyidagi xujjatlar asoida olib boriladi.

Bolalarning rivojlanish tarixi; bolalarning shaxsiy xisob kartasi; jismoniy rivojlanishni baholash junali; antropometrik tekshiruvlarni qayt qilish jurnali; Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi vrachi tashrifi qayt qilish jurnali; mahsulotlarning sifati qayt qilish daftari; xom mahsulotlarni sifatini qayt qilish daftari; pishgan maxsulotlarni sifati qayt qilish daftari; yuqumli kasalliklarni qayt qilish daftari; somatik kasalliklarni qayt qilish daftari; xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tganligini qayt qilish daftari; emlash ishlarni qayt qilish daftari; birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish vositalarini qayt qilish daftari; gumanitar yordamga kelgan vositalarni qayi qilish daftari

Toshkent shaxar Uchtepa tumanidagi 20-sonli maktabgacha ta’lim muassasasida kasalliklarni qayt qilish daftarida olingan yuqumli kasalliklarni tarqalish darajasi 1-2 jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**

**Yuqumli kasalliklarni alohida kasaliklar bo‘yicha tarqalishi darajasi, %  
(Umumiy tekshirilgan 430 nafar)**

Kasalliklar soni	Absolyut soni	%, nisbati
Gepatit A	1	0,2%
ARI	14	3,25%
Jami	15	3,48%

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, nazorat ostiga olingen mакtabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning yuqumli kasalliklar bilan kasallanish darajasi 3,48 %ni tashkil qildi. Bundan gepatit A turi bilan kasallanish darajasi 0,2%ni, ARI bilan kasallanish 3,25%ni tashkil qildi. Buni umumiy yuqumli kasalliklarni 100% hisobidan olganimizda esa 6,6%ni, 93,3%ni ARI tashkil qilganligi aniqlandi.

Nazorat ostiga olingen mакtabgacha ta’lim yoshidagi bolalar orasida esa somatik kasalliklari bilan kasallanish darajasi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mакtabgacha ta’lim muassasasida tarbiyalanayotgan bolalar orasida surunkali kasalliklarning tarqalishining gigienik tahlili shuni ko‘rsatdiki, bolalar orasida nafas olish tizim kasalliklari birinchi o‘rini, ARI birinchi o‘rinni, broxit kasalligi 2-o‘rinni, kataral angina kasalligi 3-o‘rinni, 4-o‘rinni esa allergik kasalliklar egallaganligi aniqlandi.

Ikkinchi o‘rini esa 5-o‘rinni esa allergik kasalliklar egallaganligi aniqlandi. Bu kasalliklarga tarqalganlik % boshqa kasalliklarga nisbatan keng ma’lum bir darajada yuqori ekanligi aniqlandi.

**2-jadval**

**Somatik kasalliklar bilan kasallanish darajasi  
Umumiy tekshirilgan bolalar soni -430 nafar**

№	Kasalliklar nomi	Abs	%
1	ARI	99	60,31%
2	surunkali tonzillit	22	3,17%
3	Bronxit	114	16,47%
4	Konyuktivit	5	0,72%
5	Streptodermiya	8	1,15%
6	Otit	3	0,62%
7	allergik kasalliklar	25	3,6%
8	jarroxlik kasalliklari	14	2,02%
9	ortopedik kasalliklar	10	1,44%
10	kataral angina	73	10,5%
	Jami	692	100

## XULOSA

1.Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning yuqumli kasalliklar bilan kasallanish darajasi 3,48 %ni tashkil qildi, bundan gepatit A turi bilan kasallanish darajasi 0,2% ni.

2. Maktabgacha ta’lim tshkilotida tarbiyalanayotgan bolalar orasida surunkali kasalliklardan nafas olish tizim kasalliklari birinchi o‘rini, ya’ni ARI birinchi o‘rinni, broxit kasalligi 2-o‘rinni, kataral angina kasalligi 3-o‘rinni, 4-o‘rinni esa allergik kasalliklar egallaganligi aniqlandi.

## ADABIYOTLAR

1. Болалар ва ўсмирлар гигиенаси. Г.И.Шайхова таҳрири остида. Тошкент, 2011. 345 С.
2. Баранов, А. А. Состояние здоровья современных детей и подростков и роль медико-социальных факторов в его формировании. Текст. /А.А. Баранов, В.Р. Кучма, Л.М. Сухарева // Вестник РАМН 2009.-№5. - С.6-11.
3. Башарова Л.М. Физическое развитие детей как основа оптимизации условий их воспитания в дошкольных санаторных учреждениях. //Материалы научно-практическая конференция с международным участием. /Гигиенические аспекты охраны окружающей среды, укрепление здоровья и благополучие населения-приоритетные направления здравоохранения Узбекистана. Ташкент, 2014. С.153-155.
4. Лисицын Ю.П. Актуальные проблемы профилактики ноинфек-ционных заболеваний. //Тез.докл.науч.прак.конфр. Междун. участием. М. 1997.С.139-140.
5. Soatov Mirmuhsin Maxmatmurot o’g’li, and Soatov Mirmuhsin Maxmatmurot o’g’li. “UMUMIY O’RTA TA’LIM MUASSASALARIDA O’QUVCHILAR OVQATLANISHINI GIGIYENIK TASHKILLASHTIRISH”. PEDAGOGS, vol. 49, no. 1, Jan. 2024, pp. 41-46, <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/696>.
6. Туйчиевна, М. О. ., Махматмуротович, С. М. ., & Расуловна, Х. Б. . (2023). Основные Возрастные Заболевания И Состояния Распространенные Среди Мужчин И Женщин Пожилого Возраста. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(4), 14–25. Retrieved from <https://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/674>
7. Eshnazarovich T. B. et al. Hygiene Requirements for School Furniture. – 2023.
8. Tuxtarov B. E., Mirmuhsin Maxmatmurot O. G. ’Li Soatov, Mohira Zayniddin Qizi Saydaliyeva UMUMTA’LIM MAKtablari VA MAKtabgacha TA’LIM MUASSASALARILARDA BOLALAR VA O’SMIRLAR GIGIYENASINING TUTGAN O’RNI //Scientific progress.–2023. – T. 2.

9. Soatov , M. M. o‘g‘li, & Elmurodova , L. X. qizi. (2023). SUVNI KOAGULYATSIYA QILISHNING GIGIYENIK AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(30), 67–71. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/5194>
10. Соатов Мирмуҳсин Махматмуротович, & Абдурахмонова Маржона Шавкат кизи. (2024). ЗДОРОВОЕ ПИТАНИЕ – ЗАЛОГ ЗДОРОВЬЯ. *PEDAGOGS*, 53(1), 64–67. Retrieved from <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/899>
11. Абдурахмонова Маржона Шавкатовна, & Соатов М.М. (2024). ПРАВИЛЬНОЕ ПИТАНИЕ ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ. *PEDAGOGS*, 53(1), 68–71. Retrieved from <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/900>
12. Soatov Mirmuhsin Maxmatmurot o‘g‘li, & Soatov Mirmuhsin Maxmatmurot o‘g‘li. (2024). UMUMIY O’RTA TA’LIM MUASSASALARIDA O’QUVCHILAR OVQATLANISHINI GIGIYENIK TASHKILLASHTIRISH. *PEDAGOGS*, 49(1), 41–46. Retrieved from <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/696>
13. Soatov , M. M. o‘g‘li, & Ramazonova , K. U. qizi. (2024). MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA BOLALARNING OVQATLANISHINI GIGIYENIK BAHOLASH. *GOLDEN BRAIN*, 2(1), 281–290. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/5952>
14. Абдурахмонова Маржона Шавкатовна, & Соатов М.М. (2024). САНИТАРНАЯ ЭКСПЕРТИЗА КОЛБАСНЫХ ИЗДЕЛИЙ. *PEDAGOGS*, 53(1), 72–74. Retrieved from <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/901>